



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 24-may

VI-79-62-5-78-K/24

Zarafshon shahar

Zarafshon shahrini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish hamda “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash bo‘yicha sektor rahbarlari tomonidan 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Davlatimiz rahbari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar va viloyat kengashlari sessiyalarini o‘tkazish va ularda joriy yilning 1-choragida sektorlar rahbarlarining amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotlarini eshitish va muhokama qilish topshirig‘i berildi. Bunda aholi bandligini ta‘minlash, kam ta‘minlangan oilalarni kambag‘allik darajasidan chiqarish, doimiy yashash manzillaridan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar bilan ishlash, “Sayhunobod tajribasi”ni joriy etish, aholi kayfiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, “mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas‘uliyatini oshirish yo‘nalishlariga e‘tiborni qaratish zarurligi belgilandi.

Shahardagi 15 ta mahallada 22729 ta xonadon, 26732 ta oila mavjud bo‘lib, 93372 nafar aholi istiqomat qilmoqda.

Shaharda 272 nafar yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan bo‘lib, amalda 1197 nafar ish o‘rinlari yaratilgan, ya‘ni yillik reja 440,1 foizga bajarilgan. Yo‘nalishlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak:

xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish (*o‘zini-o‘zi band qilish, mavsumiy, legallashtirish*) hisobiga 1-chorak rejasi 258 nafar bo‘lib, amalda 1154 nafar ish o‘rni yaratilgan.

investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga reja 2 nafar bo‘lib, amalda 18 nafar ish o‘rni yaratilgan.

qurilish va kommunal sohada reja 12 nafar bo‘lib, amalda 25 nafar ish o‘rni yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 5-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 799-son qaroriga muvofiq shaharning, aholi punktlarining, mahallalarning hududlarini va boshqa hududlarni obodonlashtirish (ko‘kalamzorlashtirish, yig‘ishtirish, oqlash, ariqlarni, qabristonlarni, ziyoratgohlarni, madaniy ob‘ektlarni tozalash va boshqalar) hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni, keksalarni, bemorlarni va boshqa shaxslarni parvarishlash bo‘yicha 86 nafar fuqarolar jamoat ishlariga jalb qilingan.

Aytib o'tish joizki, joriy yildan boshlab yangi tartib ishlab chiqilgan. Unga ko'ra har bir yo'nalishda bandligi ta'minlangan aholi to'g'risida ma'lumotlar "Yangi ish.mehnat.uz" elektron platformasiga kunlik kiritib boriladi. Jumladan, mas'ullar shahardagi, investisiyalar va tashqi savdo, iqtisodiyot va moliya, va qurilish bo'limi boshliqlariga, bandligi ta'minlangan fuqarolarni "Yangi ish.mehnat.uz" elektron platformasiga kiritish bo'yicha ruxsatnoma berilgan.

Hurmatli Prezidentimizning "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024 yil 4 apreldagi 59-son Farmoni qabul qilinib, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga bir qator imtiyoz va imkoniyatlar belgilandi. Chetga ketgan fuqarolarni shahardagi 4 ta sektorlarga ajratib, mahalla raislari, hokim yordamchilari va tegishli tashkilot va idoralar bilan birgalikda ularning oila a'zolari holidan xabar olish hamda yordamga muhtoj va ehtiyojmandlariga alohida yordamlar ko'rsatish bo'yicha xatlov ishlari olib borildi.

"Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish va ularning mas'uliyatini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-qarori asosida O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zbekiston mahallalari uyushmasining asosiy vazifasi etib, "mahalla yettiligi"ning faoliyati samaradorligini oshirish, hamkorlikdagi ishlarini tashkil etishga qaratilgan.

Davlat Rahbarining Andijon viloyatiga tashriflari mobaynida mahallalarda aholi muammolarini hal qilish, "mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda yoshlar bilan ishlash, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha barcha viloyatlarda "Andijon tajribasi"ni joriy etish topshirig'i berildi hamda Andijon viloyatining Marhamat shahri "Dukchi Eshon" mahallasi misolida "mahalla balansi" ishlab chiqildi.

Aholi kayfiyatiga salbiy ta'sir qilayotgan muammolarni o'rganish va hal qilish, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, "mahalla yettiligi" faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida har bir mahallaning "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, mahallalarda ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, norasmiy band bo'lgan fuqarolarni rasmiy band qilish maqsadida "Ombor daftar"lari shakllantirildi. "Ombor daftar"lariga 2301 nafar ishsiz fuqarolarning ro'yxatlari kiritilib, aholi bandligini ta'minlash dasturi hamda manzilli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining 137-sonli qarori bilan "mahalla yettiligi"ni ishga kelib-ketish daftari joriy etildi. May oyidan boshlab har oyning yakuni bilan ishga kelib-ketish daftari asosida mahalla raisi tomonidan Mehnat qonunchiligiga rioya etgan holda tabel yuritib, "mahalla yettiligi"ning oylik maoshini to'lovchi rahbarlariga xat orqali tabel taqdim etib borish tizimi joriy etildi. Shuningdek, "mahalla yettiligi" tomonidan har haftada bir marotaba mahalla hududidagi ta'lim tashkilotida o'quvchilarning davomati, oilaviy poliklinikalarda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat va patronaj hamshiralarning oilalarga tashrifi, sport tashkilotlarining aholi uchun ochiqligi, savdo va xizmat ko'rsatish ob'yektlari atrofining tozaligi hamda daraxtlarni parvarishlash holatini o'rganish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Xorijda ishlayotgan fuqarolar xonadonidagi ahvolni o'rganib, ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va amaliy yordam ko'rsatish,

bolalariga ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yordam berishi talab etiladi.

Sektor rahbarlari mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va ularning rasmiy bandligini ta'minlash bo'yicha nazorat olib borishi kerak. Og'ir ahvolga tushib qolgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib boorish va ular uchun ijtimoiy xizmat hamda yordamlarni tashkil etishga mas'ul bo'lishi kerak.

Hokim yordamchilari "Onlayn mahalla" elektron platformasi orqali milliy vakansiyalar bazasidagi xorijiy ish beruvchilarda mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari hamda ushbu ish o'rinlariga qo'yilgan talablar to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy monitoring qilib borishi kerak.

Har bir mahalla yettiligi mahallada mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni xatlovdan o'tkazishi, natijalarini "Reintegratsiya" moduliga kiritib borishi lozim bo'ladi.

Hurmatli Prezidentimiz rahbarligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etishni maqsad qilgan ekanmiz, bu borada birinchi navbatda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allik darajasini keskin qisqartirish borasidagi vazifalarni ustuvor mezon sifatida belgilab olmog'imiz lozim. Negaki qachon inson aniq ish joyiga ega bo'lsa, shu ishi tufayli oilasi moddiy farovonligini ta'minlasa, ana shunda u turmushidan rozi bo'ladi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, "Kambag'allikni qisqartirish borasida boshlagan keng ko'lamli ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqib, bundan buyon ham barcha yo'nalishlarda "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida islohotlarni qat'iy davom ettiramiz!". Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan bu harakat mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish darajasini yanada jadallashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, kambag'allikni keskin kamaytirish va yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi turmush darajasini oshirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Albatta bu marraga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Buning uchun avvalo, o'z-o'zimizga bo'lgan talabchanlik, ishga nisbatan qat'iy yondoshuvni yanada kuchaytirmog'imiz talab etiladi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari takliflarini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sektorlar rahbarlari (N.Rahmanov, Sh.Shernazarov, E.Yaxyoyev, Z.Shomurodov)larning 2024-yil mobaynida shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda sektorlar tomonidan hududlardagi "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash haqidagi hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari F.Soyibov, E.Davlatov, S.Boboyorovalarning:

"Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz" hamda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishning natijasi sifatida "Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim" degan g'oyaning Shahardagi barcha darajadagi tashkilotlar, mahallalar va ta'lim muassasalarida dasturi amal bo'lishi hamda bunda barcha deputatlar faol targ'ibotchi bo'lishi zarurligi;

sektorlar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda ushbu yo'nalishda shahardagi barcha korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratishlari lozimligi;

mahalla raislari ko'pni ko'rgan nuroniylar bilan birgalikda o'z mahallasini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirishda jamoatchilikning rolini yanada oshirish zarurligi;

“Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda barcha darajadagi deputatlar shaxsiy tashabbus va ibrat namunasini ko'rsatish lozimligi to'g'risidagi takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

3. Shahar sektor rahbarlari faoliyatida quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilsin:

shahar hokimligi va mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 2024-yil mobaynida har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlangan manzilli dasturlar ijrosini o'z vaqtida va to'liq ta'minlash;

sektor hududidagi mahallalarni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, mahallalarda tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va tizimli amalga oshirish.

4. Shahar sektorlar rahbarlari (N.Rahmanov, Sh.Shernazarov, E.Yaxyoyev, Z.Shomurodov):

aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishlarda korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratilishi inobatga olinsin;

har kuni vertikal tizim asosida hududdagi mahallalarda “yettilik” faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy ko'maklashib borish hamda mahalla raislari bilan o'zaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralari ko'rib borilishini ta'minlasin;

shahar hokim o'rinbosarlari, mutasaddi tashkilotlar va mahallalardagi “yettilik” bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilishini va ijroga qaratilishini ta'minlasin;

har haftada “Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish yuzasidan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganib borsin hamda mutasaddi tashkilotlar va vertikal tizim asosida mavjud muammolarni hal etishga ko'maklashib borsin;

har chorakda xalq deputatlari shahar Kengashiga aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar bajarilishi holati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berib borsin.

Bunda mahalliy budget va boshqa manbalar (jamg'armalar) hisobidan ajratilayotgan moddiy yordam pullari va kam ta'minlangan, iqtisodiy nochor oilalarga ajratilgan mablag'larning sarflanishi yoki ajratilishi yuzasidan alohida nazorat o'rnatilishini ta'minlasin;

hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan ish o'rinlari prognozi hamda tarmoq investisiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan yangi ish o'rinlarini muntazam ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlasin;

har chorakda O'zbekiston mahallalari uyushmasining shahar bo'limi (D.Xusenov) bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan "mahalla yettiligi" a'zolarining aholiga hisobotlar taqdim etilishini tashkillashtirsin.

5. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev:

uch kun muddatda mutasaddilik qilinadigan tashkilotlar bilan birgalikda tegishliligi bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha har bir shahar tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilasin hamda har hafta yakunida mas'ul tashkilotlar rahbarlari va shahar o'rinbosarlarining hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin;

shahar banklari hamda kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan birgalikda 15 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz aholining bandligini ta'minlash bo'yicha kreditlar va subsidiyalarni o'z vaqtida ajratish bo'yicha qo'shimcha choralarni belgilasin.

Bunda mahallalarni "o'sish nuqtalari" (ixtisoslashuv yo'nalishlari)ni aniqlab, yangi tadbirkorlik, jumladan "drayver" loyihalarini amalga oshirishda tashabbuskorlarga ko'maklashishni ustuvor vazifa sifatida belgilasin;

bir hafta muddatda shahar hokimining o'rinbosarlari tomonidan har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida 1 tadan mahallada (1 ta chorak davomida barcha mahallalarda) oilalarning daromad manbalarini "xonadonbay" o'rganishlarini tashkil etsin;

doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun to'siq bo'layotgan (qurilish uchun ruxsat berish, turli xil faoliyatlar uchun lisenziya olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik uchun ajratish, kommunikatsiya tizimlariga ulanish) muammolarni o'rganish va tezkorlik bilan hal etish choralari ko'rib borsin;

har chorakda grafik asosida tijorat banklari tomonidan biriktirilgan shahardagi mahallalarda har bir xonadonga kirib, ularga kompleks bank va moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali imtiyozli kreditlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishlarini ta'minlasin;

har haftada kamida 1 ta mahallaga shaxsan borgan holda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shahardagi mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin;

joriy yilda shaharda investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha manzilli rejalarini ishlab chiqsin;

o'n kun muddatda mahalla kesimida ularning investitsiya dasturlariga kiritilganligi masalasini, tadbirkorlik subyektlari mavjud bo'lmagan mahallalardagi holatni tahlil qilib, shaharda investisiya loyihalarini "mahallabay" shakllantirish amaliyotini joriy etish choralari ko'rib borsin;

ikki hafta muddatda investisiya dasturlarini, shu jumladan hududiy dasturlarni shakllantirishda mahalla raislarining takliflarini eshitish va inobatga olish amaliyotini yo'lga qo'ysin;

har haftada 1 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

6. Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari O. Xakimov:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda shahar bo'yicha ishsiz bo'lgan yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni "fuqarobay" ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlariga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitiladigan yoshlarning "mahallabay" hisob-kitoblarini qilsin;

bir hafta muddatda yoshlar uchun ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish ishlarini tashkillashtirilsin hamda ularga uslubiy-amaliy ko'maklashib borilishini ta'minlasin;

har haftada 1 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida 1 tadan mahallada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi jarayonlarini o'rganish hamda yoshlar bilan muloqotlar o'tkazib borilishini tashkil etsin;

har haftada 1 ta mahallaga shaxsan borgan holda yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin;

joriy yilda umumta'lim maktablarini tamomlayotgan va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni ishlab chiqsin.

7. Shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Oripov:

bir kun muddatda shaharda mutasaddi tashkilotlarning hammasini mahallaga tushirish choralarini ko'rsin va ular tomonidan tizimli ishlar olib borilishini yo'lga qo'ysin.

Bunda haftalik reja asosida mahallalarda hashar, ozodalik, yo'l bo'ylariga daraxt ekish, chiqindi, ichki ko'chalar va massivlarni tartibga keltirish hamda xiyobon, piyodalar yo'laklarini qilish ishlarini tashkil etsin;

uch kun muddatda mahallalarda "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlarini joriy etishda mavjud muammolarni hal etib borish tizimini yo'lga qo'ysin hamda tegishli ilovalarda belgilangan maqsadli ko'rsatgichlarga erishishda ularning rolini oshirish choralarini ko'rsin;

bir hafta muddatda tomonidan har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda infratuzilma va kommunal sohalardagi mavjud muammolarni o'rganish hamda mahalla faollari bilan muloqotlar o'tkazib borilishini tashkil etsin;

har haftada 1 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

8. Shahar hokimining o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda shahar bo'yicha ishsiz bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni "fuqarobay" ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlariga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitiladigan xotin-qizlarning "mahallabay" hisob-kitoblarini qilsin;

har haftada mahallalarning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va har oyda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining kamida 3 nafar xotin-qizlarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada 1 ta mahallaga shaxsan borgan holda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

9. O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahri bo'limi boshlig'i D.Xusenov:

uch kun muddatda mahallalarda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda "yettilik" va mahalla faollarining biriktirilgan ko'chalar hamda xonadonlarda manzilli chora-tadbirlarning amalga oshirilishini hamda ular tomonidan shaxsiy ibrat namunasini ko'rsatishlarini yo'lga qo'ysin;

har haftada mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash, yoshlarga dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun yer maydonlarini ajratish va ulardan samarali foydalanish hamda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada mahallalarning balansidagi ko'rsatgichlardan kelib chiqib, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni oldini olish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni belgilab borsin;

muntazam ravishda manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda shahardagi barcha mahallalarda aholi o'rtasida "Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan holi hududga aylantirish – bizning bosh maqsadimiz" hamda "Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim" degan g'oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, "boqimandlik" kayfiyatiga berilishini oldini olish, "boqimandalik – o'ziga dushman ekanligi"ni tushuntirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini hamda bunday holatga tushib qolgan fuqarolarga nisbatan jamoatchilik ta'sirini ko'rsatish ishlarini tashkil etib borsin.

10. Shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (M.Djurayev):

mehnat migrasiyasidan qaytganlar, kasb-hunarga o'qitish kurslarini tamomlaganlar bilan manzilli ishlash va doimiy bandligini ta'minlash choralarini ko'rib borsin;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kredit mablag'larining o'zlashtirilishi va oldin ajratilgan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

11. Shahar prokuraturasi (Sh.Shernazarov), ichki ishlar bo'limi (E. Yaxyoyev) adliya bo'limi bilan birgalikda:

shaharni korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, korrupsion jinoyatlarni oldini olish bo'yicha targ'ibot va ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashish tadbirlarini kuchaytirsin;

korrupsion jinoyatlarni oldini olish choralarini ko'rishda mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qarasin;

ushbu yo'nalishda 2024-yilning 1-yarim yilligi mobaynida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar belgilangan yozma axborotni xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritib borsin.

12. Shahardagi barcha bo'lim va tashkilotlar rahbarlariga har oyda kamida bir marotaba mutasaddilik qilinadigan bo'lim va tashkilotlardagi mehnat jamoalarida shaharni korrupsiyadan holi hududga aylantirish, korrupsion jinoyatlarni oldini olish hamda ushbu toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik, shuningdek "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda shaxsiy tashabbus ko'rsatishlari haqida tushuntirish-targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirib borish topshirilsin.

13. Shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (M.Tursunova) adliya bo'limi bilan hamkorlikda:

doimiy ravishda qo'shma reja-dasturlar asosida shahardagi umumta'lim maktablari o'quvchilariga yoshlar o'rtasida korrupsiya va uning turlari, korrupsiyaning davlat va jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'luvchi salbiy oqibatlar hamda ushbu illatga nisbatan yoshlarda toqasizlikni shakllantirish yuzasidan huquqiy tushuntirishlar olib borsin.

Shuningdek, **"Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish – bizning bosh maqsadimiz"** hamda **"Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim"** degan g'oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini amaliy misollar orqali o'quvchilarga yetkazilishini ta'minlasin.

14. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (Z.Shomurodov) uch kun muddatda 15 ta mahallaning har birida "Mahalla budjeti" tizimini joriy etish bo'yicha prognoz ko'rsatgichlarning ishlab chiqilishini tashkil etsin va yil davomida ushbu parametrlarga erishish choralari ko'rib borsin.

15. Shahar hokimi o'rinbosarlariga:

15 ta mahallada "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish ishlarini tashkil qilish maqsadida mahallalarda og'ir turmush sharoitida yashayotgan oilalarga tegishli xonadonni ta'mirlash ishlarini shahar mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari, homiylik, xayriya hamda qonunchilik hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini ta'minlasin.

16. Xalq deputatlari shahar Kengashiga:

yangi ish o'rinlarini yaratish, bunda mahallabay ishlash tizimi asosida xatlovda aniqlangan ishsiz aholining bandligini ta'minlash darajasi past va ishsizligi yuqori bo'lgan mahallalar bo'yicha yuzasidan alohida choralar ko'rish hamda hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining samarali ijro etilishini ta'minlash yuzasidan har oy yakunida tanqidiy muhokama qilib borish;

yangi ish o'rinlarini yaratish dasturi parametrlarini bajarilishi ustidan muntazam ravishda deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish hamda har oy yakuni bilan Kengashlarga axborot kiritib borish tavsiya etilsin.

17. Shahar axborot xizmati (A.Nematov) shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni, shuningdek sektorlar rahbarlari tomonidan "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va

tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Xamroyev)
zimmasiga yuklansin.

Sessiyaga raislik qiluvchi



TURSUNOVA LAYLO
ZAYNIYEVNA